



## TIJORAT BANKLARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHDA IPO (INITIAL PUBLIC OFFERING)NING O'RNINI

**Qurbonov Rufat Baxtiyorovich**

PhD, Dotsent, "Bank hisobi va audit" kafedrası, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston. email: [rufatjon86@gmail.com](mailto:rufatjon86@gmail.com). ORCID: <http://orcid.org/0000-0002-6841-9292>

## THE ROLE OF IPO (INITIAL PUBLIC OFFERING) IN INCREASING THE CAPITALIZATION LEVEL OF COMMERCIAL BANKS

**Kurbanov Rufat Bakhtiyorovich**

PhD, Associate Professor, Department of Bank Accounting and Audit, Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan. email: [rufatjon86@gmail.com](mailto:rufatjon86@gmail.com) ORCID: <http://orcid.org/0000-0002-6841-9292>

**JEL Classification:** E1, E5, E58

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari kapitallashuvini oshirishning zamonaviy usullarining nazariy va huquqiy asoslari keltirilgan. Bunda, tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish bo'yicha aksiyalarini birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) ilk bor respublikamiz amaliyotida qo'llashning huquqiy asosi tadrijiy tartibda tahlil qilingin. Tahlillar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda zamonaviy yo'llarini, yanayam soddaroq qilib aytadigan xorijda o'zining ijobiy natijasini bergan tajribalarida aksiyalarni ochiq bozorda birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) kengroq qo'llaniladi. Unga ko'ra, birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) – bu aksiyalarni qo'shimcha chiqarish yo'li bilan ularni soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda qimmatli qog'ozlarning birja bozorida birlamchi ommaviy joylashtirishdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishda aksiyalarni ochiq bozorda birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) tobora eng istiqbolli vositalaridan biriga aylanmoqda. Lekin bugungi kungacha

respublikamiz tijorat banklar tomonidan birorta ham ommaviy takliflar berilmagan. Aslida, bank amaliyotida aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi amalga oshirish zarur. Chunki bank aksiyalarini IPO va SPO mexanizmlari orqali joylashtirsa, tijorat banki o'ziga kerak resursni jalb etib, kapitallashuv darajasini sezilarli ravishda oshirishi mumkin. Aholi esa, muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan, etakchi tijorat banklari aksiyadorlariga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, tijorat banklari aksiyalarini birlamchi ommaviy taklifi (IPO)larini tashkil qilish va ularni muvaffaqiyatli o'tkazish bank uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishini ta'kidlab o'tish lozim.

Maqolada aynan tijorat banklar uchun IPO ni joylashtirish bosqichlari ham yoritilgan. Kelgusi yillarda tijorat banklari tomonidan o'tkaziladigan bank aksiyalarini birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinib, tegishli xulosalar berildi. Shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish bo'yicha tatqiqot olib borgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan hamda xorijiy davlatlar amaliyotini



o'rgangan holda mamlakatimiz tijorat banklarida aktsiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini boshlash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Abstract:** This article presents the theoretical and legal basis of modern methods of increasing the capitalization of commercial banks. At the same time, it's analyzed the legal basis of initial public offering (IPO) of shares of commercial banks to increase the level of capitalization in the practice of the republic. The results of the analysis and research show that in foreign experience the modern ways to increase the level of capitalization of commercial banks, or more simply, initial public offering (IPO) of shares in the open market, which gave positive results, are more widely used. According to this, the initial public offering (IPO) is the initial public offering of shares in the stock market by conducting an advertising campaign among unlimited number of investors by issuing additional shares.

In the digital economy, the initial public offering (IPO) of shares on the open market is becoming one of the most promising tools for commercial banks in attracting financial resources. However, to date, no public proposals have been submitted by commercial banks of the country. In fact, in banking practice, it is necessary to implement a initial (IPO) and secondary (SPO) public offering of shares. Because if the bank places its shares through IPO and SPO mechanisms, a commercial bank can attract the necessary resources and significantly increase the level of capitalization. The population can become shareholders of successful commercial banks. It should also be noted that the organization and successful conduct of initial public offering (IPO) of shares of commercial banks offers many opportunities for the bank.

The article also describes the stages of IPO placement for commercial banks. The data on the initial public offering (IPO) of bank shares to be held by commercial banks in the coming years were analyzed and relevant conclusions were made. Also, the opinions of foreign and local scholars who have conducted research on the organization of the practice of public offering of shares are given, developed conclusions and recommendations for the practice of public offering of shares in domestic commercial banks based on the study of the practice of foreign countries.

**Tayanch so'zlar;** tijorat banklar, kapitallashuv darajasi, IPO, SPO, moliyaviy barqarorlik.

**Key words:** commercial banks, level of capitalization, IPO, SPO, financial stability.

**Kirish.** Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, avvalo banklarning barqaror faoliyat olib borishlari uchun, shuningdek mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri sanaladi. Shuning uchun banklar kapitalini oshirib borish hozirgi kunning dolzrab vazifalaridan biriga aylandi [1].

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimini rivojlantirishning ustuvor

yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, moliya bozorini himoya qilish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi [2].

Aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi garchi jahon amaliyotida qo'llanila boshlaganiga ancha bo'lgani va ommaviy joylashtirishlarning rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilishiga qaramay, respublikamizda bu jarayon nisbatan ancha yangi moliyaviy mexanizm hisoblanadi, shuning uchun uni yanada chuqurroq o'rganish hamda tadqiq qilish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki, aksiyadorlik jamiyat (AJ)lari yangi aksiyadorlar hisobiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish evaziga kapitallashuv darajasini oshirishni xohlasalar yoki bunga ehtiyoj sezilar yuqoridagi mexanizmlar orqali amalga oshirish mumkin. Xalqaro amaliyotda bu mexanizmlardan samarali foydalanish o'zining natijasini bergan.

Respublikamizda aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi «Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4933-sonli Farmonida keltirilgan [3]. Bu farmonni ijrosini ta'minlash hamda davlat mulki ob'ektlarini tasarruf etish bo'yicha xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan shakllarni joriy etish va aholining keng qatlamini fond bozoriga jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.05.2017 yilda 268-sonli «Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida» tegishli qarori

qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan 2017 yil 5 dekabrda boshlab «Kvarts» AJ aksiyalarining IPO usulida joylashtirilishi bilan ushbu bozorga ilk qadam qo'yildi.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirish rolining oshishi bilan bog'liq [4]. Shu bilan birga, investitsiyalarni moliyalashtirishning eng ommabop va jadal rivojlanayotgan shakllaridan biri bu aksiyalarni birlamchi joylashtirishdir. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarni jalb qilishda aktsiyalarni ochiq bozorda birlamchi taklif etish (IPO) tobora eng istiqbolli vositalaridan biriga aylanmoqda [5].

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda «Kapitallashuv darajasi» tushunchasi, uni oshirish masalalari xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan. Dastavval A.B.Borisovning «Katta iqtisodiy lug'ati»da – «Kapitalizatsiya bu bankning qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarib, sotishdan tushgan va daromadidan ma'lum zaxiralar tashkil etish uchun ajratilgan mablag'lar hisobiga bank kapitalining o'sgan qismi tushuniladi» [6]. Yuqorilardagidan tashqari, banklarning IPO bozoridagi muammolarini o'rganishga ko'pgina xorijlik iqtisodchilar o'z asarlarida e'tibor qaratgan. Bularga N. Liang [7] M. Dikl [8], V. Mehmud [9], K. Song va boshqa [10–14] qator iqtisodchilar. Biroq, bank sektorining iqtisodiyot uchun judayam ahamiyatligiga qaramay, bu sektorida IPO masalasiga ilmiy jamoatchilikda unchalik e'tibor berilmayapti.

S.A.Ross, R.V.Vesterfield va B.D.Jordanlar esa muhim va yuqori darajada kapital jalb qilish usuli sifatida izohlab, IPO jarayoni bosqichlari, IPO bahosi, IPOdan keyingi aktsiya kursi o'zgarishlari xususida fikr yuritadi [15]. A.A.Турченко o'z ilmiy izlanishida 91-kompaniyaning IPO maqsadlari va jalb qilingan mablag'lardan

foydalanish yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarini o'rgangan hamda bular kompaniya kapitalashuv darajasini oshirishiga amin bo'lgan [16]. Ph.D A.Shomirov esa mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishda IPO, ya'ni aksiyalarni ommaviy joylashtirishning mazmuni, uning ahamiyati va o'tkazilish bosqichlari hamda uning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganilgan [17]. Prof. S.E.Elmirzaev esa respublikamizda aksiyalarni ommaviy joylashtirish orqali kapital jalb qilishning amaldagi holatini tahlil qilgan va bu jarayondagi mavjud kamchiliklarni ko'rsatib berganlar [18]. Aynan I. B. Tursunov o'zining ilmiy ishida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirishda ichki IPO o'tkazish orqali samarali korporativ boshqaruvni shakllantirish yo'nalishlarini asoslab bergan [19]. Rus iqtisodchi V. A. Belyaev esa bank sektorida IPO operatsiyalarining 2000-2020 yillar davomida dinamikasini tahlil qilgan [20].

**Material va Metod.** Ushbu maqolada tijorat banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilish bosqichlari

keltirilgan, ushbu operatsiyalarda tijorat banklarning ishtirokini o'rganish va IPO operatsiyalari bo'yicha jahon amaliyotini tahlil qilishda qiyoslash, ilmiy abstraktsiyalash, induksiya, deduktsiya, analiz va sintez usullari-dan foydalanilgan..

**Natijalar.** Birlamchi ommaviy taklif etish (IPO) – aksiyalarni qo'shimcha chiqarish yo'li bilan ularni soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda qimmatli qog'ozlarning birja bozorida birlamchi ommaviy joylashtirishdir. Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish bo'yicha aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi ilk bor respublikamiz amaliyotimizda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi 358-sonli «Fond birjasida aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirishni tashkil etish to'g'risida» tegishli qarori qabul qilindi [21]. Mazkur qarorda aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi amalga oshiriladigan quyidagi tijorat banklarining ro'yxati belgilab berildi.

*1-jadval*

**Aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklifi amalga oshiriladigan tijorat banklarining ro'yxati<sup>1</sup>**

№	Aksiyadorlik jamiyatining nomi	Aksiyalarni ommaviy taklif etish tashkilotchisi	Sotish turi
1.	ATB "O'zsanoatqurilishbank"	ATB "O'zsanoatqurilishbank"	IPO
2.	ATB "Asia Alliance Bank"	ATB "Asia Alliance Bank"	IPO
3.	ATB "Aloqabank"	O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda "O'zbektelekom" AJ	SPO

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan



Yuqoridagi qarordan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni ham qabul qilindi. Unga ko'ra, 2021–2023-yillarda aksiyalari fond birjasida ommaviy joylashtiriladigan kompaniyalar ro'yxati tasdiqlandi. Ushbu ro'yxatdan 15 ta yirik kompaniya joy olgan, ulardan beshtasi tijorat banklari ekanligi alohida ahamiyatga egadir. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Banklarni kapitallashuv darajasini

oshirish bilan bog'liq keying huquqiy hujjat bu - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston banklarini xususiylashtirish va aksiyalarini ommaviy joylashtirish bo'yicha muddatlar belgilandi. Qarorda "Qishloq qurilish bank", "O'zsanoatqurilishbank", "Asakabank", "Xalq banki", "Mikrokreditbank" va boshqa banklar keltirilgan.

2-jadval

**2021 — 2023-yillarda aksiyalari fond birjasi orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan tijorat banklarining ro'yxati<sup>2</sup>**

№	Aksiyadorlik jamiyatining nomi
1.	"O'zmilliy bank" AJ
2.	AT Xalq banki
3.	"Agro bank" ATB
4.	"Mikrokreditbank" ATB
5.	"Qishloq qurilish bank" ATB

3-jadval

**O'z aksiyalarini fond birjasi orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan tijorat banklarining ro'yxati<sup>3</sup>**

№	Tijorat banklarning nomi	Aksiyalarni ommaviy taklif etish muddati	Sotish turi
1.	ATB "Qishloq qurilishbank"	2022 yil 1 oktyabrga qadar	IPO
2.	ATB "Aloqabank"	2023 yil 1 iyulga qadar	IPO
3.	AT "Xalqbank"	2023 yil 1 iyulga qadar	IPO
4.	ATB "Mikrokreditbank"	2023 yil 1 iyulga qadar	IPO
5.	ATB "Agro bank"	2023 yil 1 iyulga qadar	IPO
6.	AJ "O'zmilliybank"	2023 yil 1 iyulga qadar	IPO


<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Ushbu ommaviy takliflarda yuqoridagi tijorat banklari ustav kapitalining 10 foizi miqdoridagi aksiyalar sotuvga qo'yilishi belgilab qo'yilgan. Lekin hozirgi kungacha yuqoridagi tijorat banklar tomonidan ommaviy takliflar berilmagan. Aslida, bank amaliyotida aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi amalga oshirish zarur. Chunki bank aksiyalarini IPO va SPO mexanizmlari orqali joylashtirsa, tijorat banki o'ziga kerak resursni jalb etib, kapitallashuv darajasini sezilarli ravishda oshirishi mumkin. Aholi esa, muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan, etakchi tijorat banklari aksiyadorlariga aylanishi mumkin.

**Munozara.** Garchi IPO to'g'risida, uning kelib chiqish tarixi hamda bu usulni qo'llashning afzalliklari to'g'risida ko'plab mutaxassislar tomonidan fikrlar bildirilgan bo'lsada, u haqda qisqacha to'xtalib o'tamiz. IPO orqali kompaniyalar asosan quyidagi

maqsadlarni ko'zlaydi: keng doiradagi investorlardan uzoq muddatli kapital jalb qilish; ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish; aylanma mablag'larni kengaytirish; qarzdorlik yukini kamaytirish; kompaniya nufuzini oshirish; istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish va x.k. IPO o'tgan asr 90-yillari oxirida ommaviylasha boshladi. O'shanda bir yilning o'zida 200 dan ortiq kompaniya IPO o'tkazib, 200,0 mlrd. AQSh dollari miqdorida kapital jalb qilishga muvaffaq bo'lgan. Bu borada dastlab AQSh, keyinchalik Evropa davlatlari hamda Xitoy kompaniyalari etakchilik qilgan. IPO hozirda ham dunyoning etakchi kompaniyalari tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Aynan tijorat banklarini IPO amaliyotiga baho beradigan bo'lsak, banklar ham IPO bozorida muxim o'rni mavjud. Buni quyidagi rasmda ham ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. IPO bozorida tijorat banklarining IPOlari hajmi[22]. (mln dollarda)

CapitalIQ va PREQVECA ma'lumotlar bazasiga asosan 2000-2020-yillar oraliqda tahlil qiladigan bo'lsak,


jahondagi banklarning 305 ta IPOsi kiritilgan. Banklarning IPOlari davomida jalb qilingan mablag'larning umumiy hajmi 218 milliard dollarni tashkil etagan. Oxirgi 21 yil davomida tijorat banklari IPO

bozoridagi hajmi o'zgarib turganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Eng katta hajmga 2007-2008 yillarda erishilgan bo'lsa, eng past hajm 2000 yilda bo'gan. Bular shundan dalolat beradki, xorijiy tijorat banklar IPO bozorida faol qatnashib kelayotganidan dalolat beradi.

IPO milliy fond bozorimizda ayrimlar, mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan xususiylashtirish natijasida fond bozorida aksiyalarning ommaviy sotilishi garchi bu jarayon rasman IPO deb nomlanmagan bo'lsada, unga juda o'xshashini ta'kidlashadi. Lekin, shuni ta'kidlash kerakki, dastlabki xususiylashtirish jarayonida asosan davlat aktivlari bo'lgan aksiyalar sotilgan. IPOda esa tashabbuskor sifatida kompaniya ishtirok etadi. "Aksiyalarni ommaviy ilk bor taklif etish (IPO) usuli mamlakatimiz fond bozori tarixida birinchi bor amalga oshirilayotganligi bois mazkur jarayonni sifatli tashkil etish, unga aholining keng qatlamini jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi. IPO natijalariga ko'ra "Kvarts" AJ qo'shimcha 7523,81 mln. so'mlik aylanma mablag'ga ega bo'ldi. Mazkur mablag'ning bir qismi IPOni o'tkazish bo'yicha qilingan xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. Qolgani korxonada ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy uskunalarni o'rnatishga sarflanadi. Bundan tashqari 9 apreldan fond birjasining ikkilamchi bozorida "Kvarts" AJ aksiyalari oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar tuzila boshlandi. Bu faollik kundan-kunga jadallashib bugungi har bir dona aksiyaning o'rtacha qiymati 5000 so'mni tashkil qilmoqda. Demak, jamiyat aksiyalari fond bozorimizning yanada jonlanishiga, fuqarolarda aksiyalarga nisbatan qiziqish uyg'onishiga olib keldi xamda qimmatli

qog'ozlar daromad manbai ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Yil yakunlariga ko'ra, "Kvarts" AJ fond birjasida tuzilgan bitimlar soni bo'yicha birinchilardan bo'lsa ajab emas. O'ylaymizki, mamlakatimiz fond bozori tarixida ilk bor o'tkazilgan IPO muvaffaqiyatli kechdi. Mazkur jarayonda orttirilgan tajriba kelgusida amalga oshadigan IPO samarasini ta'minlashda qo'l kelishi shubhasiz. Fuqarolarimizning bir guruhi moliyaviy barqaror aksiyadorlik jamiyati aksiyadori bo'lganliklaridan mamnunliklarini izhor etishmoqda"[23].

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan aksiyalarni soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish yo'li bilan ommaviy joylashtirish IPO uchun asos bo'lishi mumkin. IPOni o'tkazish ma'lum tartibotga rioya etishni, ya'ni xalqaro amaliyotda "Road Show" deb nomlangan reklama kampaniyasini amalga oshirishni talab etadi. Albatta, bankning aksiyalarini fond birjasida joylashtirish unga katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishga tayyorgarlikni boshlashdan avval, tijorat banki strategik maqsadlarini belgilab olishi zarur. Buning uchun, IPO tartibotini o'tkazadigan har qanday aksiyadorlik jamiyati investitsiya loyahasini ishlab chiqishi va uni bo'lajak investorlarga taqdim etishi lozim. Chunki kelgusida IPO orqali aksiyalarni sotib olmoqchi bo'lgan investorlar, shu jumladan aholi va tadbirkorlik sub'ektlari ular qo'ygan moliyaviy mablag'lar qanday maqsadlarga sarflanishi xususida tasavvurga ega bo'lishi darkor. Fikrimizcha banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilishi bir nechta bosqichlarda amalga oshirishi zarur. Buni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



**2-rasm. Tijorat banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilish bosqichlari<sup>4</sup>**

Yuqoridagi bank aksiyalarini dastlabki ommaviy joylashtirilish bosqichlari banklar uchun juda muxim ahamiyatga egadir. Masalan, ilk boshqichda, banklar o'z aksiyalarini dastlabki ommaviy joylashtirishiga qadar bir necha yil oldin (odatda 1-2 yil) ma'lum talablarni bajarishlari kerak. Jumladan, aniq va puxta tuzilgan biznes-reja hamda moliyaviy hisobotlarni doimiy ravishda tayyorlab borish kabilar IPO o'tkazish uchun tijoart banklardan talab qilinadi. Keyin, IPO o'tkazish uchun jamoani shakllantiriladi. Ushbu jamoada auditorlik firmalari, investitsion bank hamda huquqiy jihatdan yordam beradigan firmalar bo'lishi mumkin. So'ng qimmatli qog'oz bo'yicha emissiya prospektini tuziladi. Ushbu jarayon bankka investorlar jalb qilishda asosiy instrument hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, emissiya prospektidan aksiyalar chiqarayotgan bank to'g'risida eng to'liq va shaffof ma'lumotlar o'rin olishi talab etiladi. Qoida tariqasida, emissiya prospekti so'nggi besh yil uchun moliyaviy hisobotlarni, maqsadli auditoriya, rivojlanish istiqbollari va rejalari, shuningdek boshqaruv kadrlarining xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Eng asosiy bosqich - Road Show o'tkazish bosqichidir. Turli joylarda tashkil etiladigan Road Show tadbirlari va yig'ilishlarida investorlar, shuningdek banklar, turli xil fondlar, sug'urta korporatsiyalari kabi yirik omonatchilar qatnashadilar. Road Show odatda taxminan bir oy davom etadi. Road Showda har kuni

bank rahbariyati potensial qimmatli qog'ozlar xaridorlari bilan kamida ikkita uchrashuv o'tkazishi kerak bo'ladi. Bu IPO tayyorlashning juda muhim bosqichi hisoblanib, shuningdek, ushbu davrda anderrayter buyurtma kitobini tuzishni boshlaydi. Road Show tugagandan so'ng bank muassislari investitsion banki vakillari bilan yig'ilish o'tkazib, unda ular chiqarilgan aksiyalar hajmini, shuningdek investorlarga qanday narxda taklif qilinishini tasdiqlaydilar. Qimmatli qog'ozlar soni va ularning qiymati ularga bo'lgan talabni oldindan baholash asosida shakllanadi. Shundan so'ng, qimmatli qog'ozlarni sotishga start beriladi. Aksiyalar narxi aniq belgilanib tasdiqlangandan so'ng, IPO boshlanishi to'g'risida e'lon beriladi (qoida tariqasida, birjadagi barcha savdolar yopilgandan keyin ommaviy e'lon qilinadi). Qimmatli qog'ozlar anderrayterlar va ularning sheriklari o'rtasida taqsimlana boshlanadi. Aksiyalarni sotish jarayoni keyingi kuni birja ish vaqti bilan bir paytda boshlanadi. Ushbu bosqichda etakchi investitsion bank qimmatli qog'ozlarning barqaror qiymatini ta'minlab, sotish jarayonini nazorat qilishi kerak. Oxirgi bosqichda esa, bitim tuzish bosqichi hisoblanadi. Agar bank aksiyalar paketini o'zining anderrayteriga o'tkazgan bo'lsa, anderrayter esa o'z navbatida mablag'ni bank hisob raqamiga to'liq o'tkazgan bo'lsa, bitim tugallangan hisoblanadi (jarayon odatda uch kun davom etadi). Bitim tugaganidan roppa-rosa bir hafta o'tgach,



ommaviy taklif rasmiy ravishda muvaffaqiyatli o'tkazilganligi e'lon qilinadi va IPO boshlanganidan yigirma besh kun o'tgach, sukunat davri tugaydi. Faqatgina ushbu muddat tugagandan so'ng, jamoa a'zolari bankning prognoz narxi to'g'risida ochiq bayonot berish, shuningdek potentsial investorlarga qimmatli qog'ozlarni sotib olishni tavsiya etish huquqiga ega bo'ladilar.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va fikrlar asosida xulosa sifatida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

1. Mamlakatimizda so'ngi yillarda tijorat banklari tomonidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarda rivojlangan davlatlar amaliyotidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlashimiz lozim.

2. IPO operatsiyalari orqali mablag'larni jalb qilish kapitalning etariligi bo'yicha tobora qattiq talablar va kredit portfelini ko'paytirish uchun qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyoj sharoitida tijorat banklari uchun eng jozibador

moliyalashtirish manbalaridan biri hisoblan ekan. Bundan kelib chiqadiki, tijorat banklar tomonidan resurs jalb qilishning eng zamonaviy usuli bu - aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi ekan.

3. Bu usul xorij bank amaliyotida juda rivojlangan usul hisoblanadi. Bu usulni respublikamiz bank amaliyotida qo'llash uchun banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilishi bosqichlardan samarali foydalanishi kerak.

4. Muallif tomonidan yuqorida sanab o'tilgan bosqichlar orqali tijorat banklari o'zlariga tegishli aktsiya paketlarini dastlabki ommaviy joylashtirishi natijasida o'zining kapitallashuv darajasini oshirishi mumkin. Buning natijasida esa tijorat bank qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklari ham bank kapitallashuv darajasini oshirishning zamonaviy usullari hisoblangan aksiyalarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifidan foydalanishsa maqsad muvofiq bo'lardi deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Kurbanov R. B., Khudoyberganova Z. Z. Matters of the increasement of private banks' capitalization level // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – №. 6. – С. 103-105.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi «Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4933-sonli Farmoni.

4. Kurbonov, R. PhD (2021) "Analysis Of Efficiency Indicators Of Private Banks Activity," *International Finance and Accounting*: Vol. 2021: Iss. 1 , Article 11.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/11>

5. Kurbanov R. The practice of strengthening of resource base in private banks.



International Journal of Economics, Commerce and Management, 2020 8 (3), ISSN: 23485-0386 <http://ijecm.co.uk/volume-viii-issue-3/>

6. Большой экономический словарь. А.Б.Борисов. Издание второе М. «Книжный мир» 2006г. С-300.
7. Dicle M., Levendis J. IPO activity and market volatility. Journal of Entrepreneurship and Public Policy. 2018;7(1):2–13. DOI: 10.1108/JEPP-D-17–00017
8. Mehmood W., Rashid R.-M., Tajuddin A. H. A review of IPO underpricing: Evidences from developed, developing and emerging markets. Journal of Contemporary Issues and Thought. 2021;11(1):1–19.  
URL: <https://ejournal.upsi.edu.my/index.php/JCIT/article/view/5504/3067>
9. Song K. R., Lee Y. Long-term effects of a financial crisis: Evidence from cash holdings of East Asian firms. Journal of Financial and Quantitate Analysis. 2012;47(3):617–641. DOI: 10.1017/S 0022109012000142
10. Allen F., Qian J., Shan S. C., Zhao M. The IPO of Industrial and Commercial Bank of China and the 'Chinese Model' of privatizing large financial institutions. The European Journal of Finance. 2014;20(7–9):599–624. DOI: 10.1080/1351847X.2012.671780
11. Jiang C., Yao S. Banking reform and efficiency in China: 1995–2008. SSRN Electronic Journal. 2010. DOI: 10.2139/ssrn.1601230
12. McGuinness P.B., Keasey K. The listing of Chinese state-owned banks and their path to banking and ownership reform. The China Quarterly. 2010; 201:125–155. DOI: 10.1017/S030574100999110X
13. Azevedo A., Guney Y., Leng J. Initial public offerings in China: Underpricing, statistics and developing literature. Research in International Business and Finance. 2018; 46:387–398. DOI: 10.1016/j.ribaf.2018.04.011
14. U-Din S., Tripe D. W.L., Kabir H. Market power and efficiency in banking: The case of USA and Canada. SSRN Electronic Journal. 2018. DOI: 10.2139/ssrn.3118703
15. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Bradford D. Jordan. Fundamentals of corporate finance. – 10th ed. USA: The McGraw-Hill/Irwin, 2013. – P. 493-498.
16. Турченко Александр Анатольевич. Публичные предложения акции как способ привлечения капитала компаниями. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск 2012. 24 ст
17. Shomirov, Aziz PhD (2021) "The role of ipo mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects," International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.  
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/19>
18. Elmiraev, S. (2019) "The practice and analysis of mass positioning of shares of jointstock companies," International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 1, Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss1/3>
19. Tursunov Iskandar Baxtinurovich. Tijorat banki kapitallashuviga korporativ boshqaruv ta'sirini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. 56 b.
20. Belyaev V. A . Analysis of the dynamics of IPO transactions in the banking sector. Finance: Theory and Practice. 2021;25(6):16-28. DOI: 10.26794/2587-5671-2021-25-6-16-28
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi «Fond



birjasida aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirishni tashkil etish to'g'risida»gi 358-sonli qarori

22. [www.capitaliq.com](http://www.capitaliq.com) va <http://www.preqveca.ru> – rasmiy sayti ma'lumotlari

23. Chinqulov Q.R. Respublikamizda ilk IPO hamda SPO: yutuqlar va muammolar // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 5, oktyabr, 2019 yil